



O'ZBEKISTONDA KADRLAR TAYYORLASH SIYOSATI VA UNDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH

i.f.n., dots. **Mahsutaliyev Abdusalom Hasanovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0008-3444-0908

barsmax.737@gmail.com

Annotatsiya. *Pedagogika oliygohi bitiruvchisi, nafaqat fuqarolarni bilimli qilib tayyorlash va mamlakat inson kapitalini shakllantirish, shu bilan birga mavjud pedagogik qadriyatlarini asrab-avaylash, rivojlantirish va keyingi avlodga uzatishda ham muhim bo'g'in hisoblanadi. Mazkur maqolada O'zbekistonda kadrlar tayyorlash siyosati va unda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish istiqbollari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik ta'lim, iqtisodiy rivojlantirish, ta'lim texnologiyalari, kadrlar muammosi, maxsus pedagogika, Yevropa standarti, majburiy ta'lim, "iqtidorli o'quvchi".*

ПОЛИТИКА ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОПЫТА ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

к.э.н., доц. **Махсуталиев Абдусалам Гасанович**

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. *Выпускник педагогического университета является важным звеном не только в обучении граждан и формировании человеческого капитала страны, но и в сохранении, развитии и передаче существующих педагогических ценностей следующему поколению. В данной статье описывается политика подготовки кадров в Узбекистане и перспективы использования в ней опыта зарубежных стран.*

Ключевые слова: *педагогическое образование, экономическое развитие, образовательные технологии, кадровая проблема, специальная педагогика, евростандарт, обязательное образование, «одаренный ученик».*

PERSONNEL TRAINING POLICY IN UZBEKISTAN AND THE USE OF THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES

PhD, assoc. prof. **Mahsutaliyev Abdusalom Hasanovich**

Tashkent State University of Economics

Abstract. *A graduate of a pedagogical university is not only an important link in the education of citizens and the formation of the country's human capital, but also in the preservation, development and transfer of existing pedagogical values to the next generation. This article discusses the policy of personnel training in Uzbekistan and the prospects for using the experience of foreign countries in it.*

Keywords: *pedagogical education, economic development, educational technologies, personnel problems, special pedagogy, European standard, compulsory education, "gifted student".*

Kirish.

Har qanday korxonada yoki tashkilotning rivojlanishi, texnika va moliyaviy imkoniyatlari yuqori bo'lishi ko'p jihatdan ishchi-xodimlar, mutaxassislarining bilimi, malakasi va tajribasi darajasiga bog'liq. Xodimning malakasi yuqori, bilimi chuqur bo'lsa ham uni muntazam ravishda rivojlantirish, oshirib borish talab etiladi. Zero, texnika va texnologiya to'xtovsiz yangilanib bormoqda. Bu esa ishchi-xodimlarni kasb mutaxassisligi bo'yicha o'qitish, rahbarlar, muhandis-texnik xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, zamon evrilishlariga tezda moslasha olishga tayyor bo'lishi doimo dolzarb bo'lib qolishini anglatmoqda. Jahonda inson omili va kapitali, qobiliyati va salohiyatidan innovatsiyalarni, raqamli boshqaruv tizimi va axborot kommunikatsiya vositalarini joriy qilish asosida samarali foydalanish keng tadbiriq etilayotgan bugungi kunda, pedagog kadrlar tayyorlashdagi muammolar inson kapitali sifatining o'sishini susayishiga sabab bo'lmoqda. SHu bilan birga ohirgi yillarda dunyoning qator mamlakatlarida (iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda ham) ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yuqori malakali pedagog kadrlar tanqisligi kuzatilmogda.

Adabiyotlar sharhi.

Respublikamizda ham kadrlar bo'shlig'ini to'ldirish, shu jumladan, umumta'lim maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablarida pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish ob'ektiv zarurat. Ushbu masalalarni hal qilish mexanizmlarini ilg'or horijiy tajribalar asosida ishlab chiqish zarurati tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarorida pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish kerakligi asosiy maqsad ekanligi qayd etilgan (Qaror, 2020). 2022- 2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham ushbu mavzu yuzasidan fikrlar yuritilib, bir qancha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur qarorlar qabul qilinishi ham yurtimizda malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan yuksak e'tiborni ko'rsatmoqda.

Ta'limda ixtisoslashtirishning ilmiy asoslangan tizimi joriy qilinmaganligi, ta'lim tarmoqlarida moddiy-texnik va innovatsiya tizimining talab darajasida emasligi, oliy ma'lumotli professional pedagog kadrlar tayyorlaydigan Oliy ta'lim muassasalari (OTM)ning malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalari bilan integratsion munosabatlaridagi muayyan muammolarning yuzaga kelishi natijasida xalq ta'limi tizimida ayrim fanlar (maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, rus tili va adabiyoti, ingliz tili, matematika, informatika va axborot texnologiyalari, kimyo, fizika va astranomiya) bo'yicha o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyoj qondirilmay qolmoqda. Ma'lumki, hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini, xususan, pedagogikani jamiyatning yangi talablariga muvofiq, tez o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, umuman ta'lim paradigmasining o'zgarishi bilan isloh qilishga katta ahamiyat berilmoqda (Ne'matullaeva, 2024). Keyingi yillarda ta'lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy kadrlar tayyorlashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi. Prezident qarori bilan 2017-2021 yillarda Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Joriy yilda mamlakatimizda 13ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etildi. Fanlar akademiyasi va Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan yuqori malakali kadrlar tayyorlash ishlari boshlandi. Albatta, bunday e'tibor yaqin kelajakda o'z samarasini beradi. Lekin barcha sohalarda jadal islohotlar olib borilayotgan bir paytda shu sur'atga mos ilg'or kadrlar mamlakatimizga bugun kerak. Davlatimiz rahbari mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarga islohotlar sur'atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi. SHu maqsadda butun ta'lim tizimi takomillashtirilmoqda. SHu asnoda xalqaro rivojlangan davlatlar tajribalari o'rganilib, ishga

tatbiq etilmoqda. Xalqaro tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali ta'lim tarbiyada qotib qolgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ega bo'lamiz (G'ayratova, 2022). Malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha bir necha rivojlangan davlatlar ish uslubidan namunalar ko'rib chiqamiz.

Malumotlarga ko'ra, yevropa mamlakatlarida maxsus pedagogika oliy ta'lim muassasalari yo'q, biroq pedagogika institutlarini o'z ichiga olgan yirik universitetlar faoliyat yuritadi. yevropa standartlariga ko'ra, ta'lim doirasida turli tarmoqlar va kasblar o'rtasida harakatlanishga imkoniyat ko'plab oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlari orqali ta'minlanadi va ular bo'lajak o'qituvchiga yetarli darajadagi malaka beradi. Finlyandiyaning o'qituvchi-pedagoglar tayyorlash tizimi ko'p mamlakatlar uchun na'muna bo'lib xizmat qiladi. O'tgan asrning oxirida o'qituvchilar uchun magistratura darajasi minimal ta'lim me'yori deb belgilandi (shu jumladan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ham), bu esa qaysidir darajada mamlakatdagi pedagoglar hurmatini va ijtimoiy maqomini oshirish uchun muhim hissa qo'shdi. Finlyandiya maktab o'qituvchisi bo'lish uchun juda qattiq tanlovdan o'tish zarur: pedagogika mutaxassisliklarining eng yaxshi talaba-bitiruvchilari 12% atrofida maktablarga ishga olinadi. Finlyandiya ta'lim tizimining yana bir ijobiy jihati, kichik guruhlarda o'qitishga ustuvorlik berilishi. Bu shubhasiz, ta'limning yuqori sifatda bo'lishiga olib keladi (Muhaz.org, 2023). Mamlakatda maktab ta'limining muvaffaqiyati maktab o'quvchilarini qo'llab-quvvatlash tizimi bilan ham bog'liq. Finlyandiya jami iqtisodiyotda bandlar ulushida ijtimoiy ishchilar va psixologlar soni jihatidan, barcha yevropa mamlakatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xitoy dunyoda eng katta aholi soniga ega bo'lgan davlat bo'lganligi sababli ham hukumat qashshoqlikni kamaytirish maqsadida ta'lim tizimini rivojlantirish dasturini ishlab chiqqan. Olib borilgan islohotlar natijasida keyingi 10 yilliklarda Xitoy ta'lim tizimi katta yutuqlarga erishdi. XX asrning o'rtalariga qadar Xitoy iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan bo'lib, qo'l mehnatiga tayangan dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Aholining katta qismi qishloqlarda istiqomat qilgan va ta'limda ko'proq gumanitar fanlar falsafa, tarix va ijtimoiy sohalarga ustuvorlik berilgan (Abdurahmonov va boshq, 2006). Xitoy ta'lim tizimi asosan maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va oliy ta'limdan iborat. Xitoy Xalq Respublikasining "Majburiy ta'lim to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi barcha uchun majburiy o'rta ta'lim tizimini shakllantirdi. YAngi qonunga ko'ra 9 yillik ta'lim majburiy va bepul qilib belgilandi. Xitoyda pedagogik ta'lim hozirda xalqaro darajaga etib bormoqda. Rossiya, Yaponiya va AQSH tajribasidan kelib chiqib, milliy an'analarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z tizimi yaratilmoqda. So'nggi o'n yilliklarda Xitoyda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishi boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha tez va jadallashgan. Yo'naltiruvchi g'oyalardan biri kasbiy pedagogik kadrlar tayyorlashning iqtisodiyot va umuman jamiyat bilan aloqasini mustahkamlashga, urbanizatsiya va sanoatlashtirishga qaratildi. Mamlakatda pedagogik kadrlar tayyorlash ochiqligini oshirishga intilmoqda: mavjud ta'lim muassasalari negizida boshqa oliy o'quv yurtlari ishtirokidagi pedagogik ta'lim tizimi bosqichma-bosqich shakllanmoqda.

Yaponiya ta'limida "iqtidorli o'quvchi" tushunchasi yo'q, (Abdurahmonov, 2013) chunki har bir o'quvchi alohida iqtidor sohibidir. Ilg'or mamlakatlar ichida Yaponiya ta'limi o'ziga xos yo'nalishi yetakchi o'rinni egallaydi. Jumladan, Yaponiya ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari. Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni o'z xulqining yomon jihatlarini, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o'rgatishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga tasir etadi. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining

maoshi davlat rahbarlari orasida ham yuqori bo'lgan yagona davlat. Ta'limning bu pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. Muhtoj oilalarning bolalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Yuqori o'rta maktab 10-11-12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlari mavjud. Yuqori bosqich o'rta maktablarda butun o'quv jarayonida o'quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z xohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus sinovlarga jalb etiladi. Universitetlariga yuqori va o'rta maktabning yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o'quvchilari qabul qilinadi. Universitetlarga qabul qilinish 2 bosqichga bo'linadi: 1-bosqich turar joyda o'tkaziladi, buning uchun yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tkazilad (Abdurahmonov va boshq, 2006). Yaponiyada oliy ta'lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqdir.

Yaponiyada bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas'uliyati ayniqsa kattadir. Ular farzandlarining aqlli, dono va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o'zlarini ma'sul deb hisoblaydi. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko'plab metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televideniya orqali ko'plab pedagogik maslahatlar berib boriladi. Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal, yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo'lib, parta ustida kitob javoni, yoritkich, soat, qalam, qog'oz, mikrokalkulyator va boshqa zaruruy ashyolar, shuningdek kerak bo'lib qolgan taqdirida ota-onalarini chaqiradigan signal tugmachalarigacha o'rnatilgan. Yaponiya o'rta maktablarining saviyasi AQSH o'rta maktablari saviyasidan bir muncha yuqori turadi. YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki Yaponiyada ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o'rgansa arziydigan jihatlari ko'p. e'tiborli yana bir tomoni – Yaponiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay jahondagi AQSH, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o'zlashtirilgan. Bunday tajribalar Respublikamiz ta'lim tizimini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishda qo'l kelishi shubhasiz.

Germaniya jahon ma'rifat va madaniyat o'choqlaridan biri. Ushbu davlatda har bir fuqaro o'z shaxsini erkin rivojlantirish, o'z iqtidori moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o'qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega. Maktab ta'lim tizimi boshlang'ich va o'rta ta'lim muassalaridan iborat. Barcha davlat maktablarida o'qish bepul. Germaniyada maktab ta'limi quyidagi maktab tiplariga bo'linadi: boshlang'ich maktab; yo'nalish maktablari; asosiy maktab; real maktab; gimnaziya; umumiy maktab; maxsus maktab. Boshlang'ich maktab ta'lim tizimining poydevori hisoblanadi (Basovskiy, 2007). Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish maktabga o'tishadi. Asosiy yoki to'liq xalq maktabi boshlang'ich maktabni bitirib, real maktab yoki gimnaziya bormagan barcha o'quvchilar uchun majburiydir. Asosiy maktab o'qituvchilari o'zlarini o'qituvchi emas, ijtimoiy pedagog, deb his qiladi. Lekin asosiy maktabdagio'quvchilar yomon o'zlashtirishiga qaramasdan kasbiy ta'lim olishiga majbur bo'lishadi. Real maktablar ikkinchi bosqichga qarashli bo'lib, odatda 5-10-sinflarni o'z ichiga oladi. Real maktab yuqori darajali kengaytirilgan umumiy ta'lim beradi va o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mas'uliyat hissi, insonlarga rahbarlik qilish ko'nikmalariga yuqori talab qo'yadigan kasb egalari bo'lishi uchun kasbiy ta'lim kurslariga tayyorlaydi. Germaniya ta'limi o'ziga xos yo'nalishga juda murakkab tizimga ega. Germaniya davlatida taraqqiy etgan davlatlar orasidan o'rin olishda o'zini oqlab kelayotgan ta'lim tizimi mavjud.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, yurtimizda yoshlarimizning chuqur bilim olishi, kasb-hunar egallashi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan sanoat korxonalarini uchun zamonaviy bilimlarni egallagan, malakali, raqobatbardosh muhandis kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jamiyatda sodir bo'layotgan bugungi yangiliklar hamda iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimiga xususan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga boshqacha yondashishni talab qiladi. Kadrlar tayyorlash milliy

dasturining asosiy amalga oshirish vazifalaridan biri ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik sifati va ixtisosiga zaruriy talablarni, ularning madaniy va ma'naviy-ruxiy darajalarini aniqlab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va tatbiq etishdir. Davlat va jamiyat uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslashuvchanligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta'lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konventsiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg'or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo'lib, uning rivojlanishi omillaridan biridir. Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga izchil o'tilishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Abdurahmonov Q.X. (2013) *Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik*. – T.: Iqtisodiyot, 418 b.

Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. (2006) *Personalni boshqarish (oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik)*. – Toshkent: "O'qituvchi", 345 b.

Basovskiy L.E. (2007) *Teoriya ekonomicheskogo analiza. Uchebnoye posobiye*. – M.: «Infra-M», 220 b.

G'ayratova N.B. (2022) "KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI" AMALDA. SSIYENTIFIS PROGRESS VOLUME 3 | ISSUYE 4 | 2022 ISSN: 2181-16010

<https://muhaz.org/ozbekiston-respublikasining-kadrlar-tayyorlash-milliy-modeli-v.html>

Muhaz.org. (2023). *O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati Reja*. [online] Available at: <https://muhaz.org/ozbekiston-respublikasining-kadrlar-tayyorlash-milliy-modeli-v.html>.

Ne'matullaeva D.T. (2024) *O'zbekistonda xorij tajribalari asosida pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirish. «Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini rivojlantirish: amaliyot va xorijiy tajriba» respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024 yil 23-24 may*.

Qaror (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori*.